



28.11.2025 № 04/11-28836

dagi № _____ ga

Izlanuvchi Istamova Dilnoza Norboyevnaning 13.00.01-Pedagogika nazariyasi, Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan "Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kiberijtimoiylashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari" mavzusidagi dissertatsiya ishi ilmiy natijalaridan amaliy loyihani bajarishda foydalanilganligi to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

Izlanuvchi Istamova Dilnoza Norboyevnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi, Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan "Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kiberijtimoiylashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari" mavzusi bo'yicha olib borilgan pedagogik tadqiqot ishining natijalari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2020-2022-yillar davomida bajarilgan FZ-2020010829 - sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatini monitoring qilishning dasturiy ta'minotini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihaning yakuniy hisobotiga kiritilgan.

Izlanuvchi Dilnoza Istamova tomonidan olib borilgan tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni kiberijtimoiylashtirish jarayonining psixologik-pedagogik tizimini belgilovchi asosiy omillar (raqamli ijtimoiy o'zaro ta'sir, virtual hamkorlikka tayyorgarlik, raqamli etikadagi kompetensiyalar, raqamli kommunikativ madaniyat) tizimli tahlil qilinib, ular orqali talabalar raqamli ijtimoiylashuvining samarali yo'nalishlari aniqlashtirgan. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli identiteti, ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi va virtual muhitda o'z-o'zini ijtimoiy ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi kiberijtimoiylashtirish komponentlari (kognitiv, hissiy, kommunikativ va refleksiv) nazariy asosda aniqlanib, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o'rni asoslab bergan. Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim sharoitida kiberijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan pedagogik model taklif etilib, uning tarkibiy bloklari (maqsadli, mazmuniy, texnologik, monitoring va baholash) aniqlashtirilgan. modelda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvlar ustuvorligi takomillashtirildi va unga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Izlanuvchi Istamova Dilnoza Norboyevna FZ-2020010829 raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatini monitoring qilishning dasturiy ta'minotini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada ishtirok etgan.

Ma'lumotnoma ilmiy darajalar kengashi kengashga taqdim etish uchun berildi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



Y.Ergashov